



## BUXORO SHAHRIDA TURIZMNING TARIXIY SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLAR

**Sirojov Tolib Muhammadzarif o'g'li**

Navoiy Innovatsiyalari Universiteti 1-kurs magistranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18513809>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01- fevral 2026 yil  
Ma'qullandi: 04- fevral 2026 yil  
Nashr qilindi: 07- fevral 2026 yil

### KEY WORDS

*Buxoro, turizm tarixi, Buyuk Ipak yo'li, ziyorat turizmi, madaniy meros, tarixiy shahar.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada Buxoro shahrida turizmning shakllanishi va rivojlanish jarayoni tarixiy bosqichlar kesimida tahlil qilinadi. Qadimgi davrlardan boshlab Buyuk Ipak yo'li tizimidagi o'rni, o'rta asrlarda ilmiy va ziyorat markaziga aylanishi, Buxoro amirligi davrida mehmonnavozlik an'analari, Rossiya mustamlakachiligi va sovet davrida turizm infratuzilmasining paydo bo'lishi hamda mustaqillik yillarida xalqaro turizm markazi sifatida rivojlanishi ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Maqolada tarixiy-taqqoslash va manbashunoslik metodlaridan foydalanilgan.*

Buxoro Markaziy Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri bo'lib, uning ko'p asrlik tarixi turizm rivojining muhim manbai hisoblanadi. Bugungi kunda tarixiy shaharlar turizmi jahon miqyosida dolzarb ilmiy va amaliy masalaga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, Buxoroda turizmning tarixiy shakllanish jarayonini o'rganish nafaqat madaniy merosni anglash, balki zamonaviy turizm strategiyalarini ishlab chiqish uchun ham muhimdir.

**Tadqiqot metodologiyasi.** "Mazkur maqolaning maqsadi Buxoro shahrida turizmning tarixiy shakllanish bosqichlarini davriy jihatdan tahlil qilish va uning bugungi xalqaro turizm tizimidagi o'rnini ilmiy asoslashdan iborat."

Maqolada tarixiylik, tizimlilik va uzviylik tamoyillari asosida tarixiy-taqqoslash, manbashunoslik, tahlil va umumlashirish metodlaridan foydalanildi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar asarlari, sayohatchilar xotiralari hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.

### Muhokama va natijalar.

#### 1. Qadimgi davr va Buyuk Ipak yo'li tizimida Buxoro

Arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro vohasi miloddan avvalgi davrlardayoq savdo va madaniy aloqalar markazi bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li Buxoro orqali o'tib, shaharni xalqaro savdo va sayohat markaziga aylantirdi. Karvonsaroylar, rabotlar va bozorlarda savdogarlar bilan bir qatorda sayohatchilar va elchilar ham xizmatlardan foydalanangan.

Buxoro hududi qadimgi Sug'd sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri bo'lgan. Arxeologik topilmalar (Varaxsha, Paykend, Romitan atroflari) bu yerda miloddan avvalgi I ming yillikdoyoq sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo rivojlanganini ko'rsatadi. Buxoro Zarafshon vohasida joylashgani sababli tabiiy-geografik jihatdan qulay hudud

hisoblangan. Qadimgi manbalarda Buxoro Sug'd davlatining yirik shaharlari qatorida tilga olinadi. Bu davrda shahar nafaqat iqtisodiy, balki diniy markaz ham bo'lib, zardushtiylik madaniyati keng tarqalgan edi.

Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arbni bog'lovchi global savdo yo'llari tizimi bo'lib, Buxoro uning Markaziy Osiyodagi eng muhim tugun nuqtalaridan biri bo'lgan. Shahar Xitoy – Farg'ona – Samarqand – Buxoro – Xorazm – Eron – Yaqin Sharq yo'nalishidagi karvon yo'llari kesishgan joyda joylashgan.

## **2. O'rta asrlarda ilmiy va ziyorat turizmining rivoji**

O'rta asrlarda Buxoro musulmon Sharqining eng yirik ilmiy markazlaridan biri bo'lgan. Ayniqsa IX–XII asrlarda Somoniylar davrida shahar "Islom olamining Qubbat ul-islom"i sifatida shuhrat qozondi. Bu davrda Buxoroda madrasa, kutubxona va ilmiy majlislar tizimi shakllandi.

Buxoroga ilm olish maqsadida Xuroson, Iroq, Hijoz, Misr va Movarounnahrning turli hududlaridan talabalar va ulamolar kelgan. Bu jarayonni zamonaviy terminologiyada shartli ravishda ilmiy turizmning dastlabki ko'rinishlari sifatida baholash mumkin. Imom al-Buxoriy, Abu Bakr Narshaxiy, Abu Ali ibn Sino kabi allomalar faoliyati Buxoroning ilmiy nufuzini yanada oshirdi.

Ayniqsa Bahouddin Naqshband (XIV asr) majmuasi Buxoroni tasavvuf markaziga aylantirdi. Naqshbandiya tariqati vakillari va muridlari Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston va Anadolu hududlaridan Buxoroga ziyorat uchun kelishgan. Ziyoratchilar uchun karvonsaroylar, ribotlar va mehmonxonalar barpo etilgan bo'lib, bu shahar infratuzilmasining rivojiga turtki bergan.

## **3. Buxoro amirligi davrida sayohat va mehmonnavozlik**

Buxoro amirligi Mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida (1756–1920) Markaziy Osiyodagi yirik siyosiy, diniy va madaniy markaz bo'lib qoldi. Garchi bu davrda sanoatlashuv sust bo'lgan bo'lsa-da, ziyorat, ilmiy va diplomatik safarlar asosidagi turizm shakllari faol mavjud edi.

Bu davr turizmi zamonaviy ma'nodagi hordiq uchun sayohat emas, balki: diniy, ilmiy, savdo, diplomatik maqsadlarda amalga oshirilgan safarlardan iborat edi. Buxoro amirligi davrida turizmning eng rivojlangan turi ziyorat turizmi bo'lgan. Shahar va uning atrofida ko'plab muqaddas maskanlar mavjud edi. Jumladan: Bahouddin Naqshband majmuasi, Chor Bakr (Jo'ybor shayxlari qabristoni), Mir Arab madrasasi, Kalon masjidi va Minorai Kalonlar bor edi.

Buxoro "Muqaddas Buxoro (Buxoroi sharif)" nomi bilan mashhur bo'lib, musulmon dunyosida eng muhim mintaqaviy ziyorat markazlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Ziyoratchilar Farg'ona vodiysi, Xorazm, Qozog'iston dashtlari, Eron va Afg'oniston hududlaridan kelishgan.

## **4. Mustamlaka va sovet davrida turizm infratuzilmasi transformatsiyasi**

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoroda: arxeologik kuzatuvlar, tarixiy-me'moriy yodgorliklarni tavsiflash, etnografik tadqiqotlar boshlanadi. A. Vamberi, N. Xanikov, V. V. Bartold singari olimlarning safarlari Buxoroni ilmiy xaritalarga kiritdi. Bu jarayonni ilmiy-ekspeditsion turizmning ilk ko'rinishlari sifatida baholash mumkin.

1888-yilda Transkaspiy temiryo'lining (Kogon orqali) ishga tushirilishi Buxoroga kirib kelishni nisbatan yengillashtirdi. Kogon shahri savdo, ma'muriy, transport markazi vazifasini

bajara boshladi. Bu omil safar va tashriflar sonining oshishiga zamin yaratdi, garchi amirlik markazi Buxoro shahri o'ziga xos yopiqlicha qolgan bo'lsa ham.

1920-yilda Buxoro amirligi tugatilib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil etildi. Dastlabki sovet yillarida diniy ziyoratlar cheklab qo'yildi, ko'plab masjid va madrasalar yopildi yoki boshqa maqsadlarda ishlatildi. Natijada ziyorat turizmi deyarli to'xtadi. 1930–1950-yillardan boshlab Sovet hokimiyati tarixiy merosdan “madaniy-tarbiyaviy”, “ilmiy-ma'rifiy” maqsadlarda foydalanishni boshladi. Buxoro yodgorliklari tarixiy-madaniy ob'ektlar, muzeylar, ekskursiya marshrutlari sifatida qayta talqin qilindi. Ark, Ismoil Somoniy maqbarasi, Kalon ansambli, Labi-Hovuz majmuasi turistik obyektlarga aylantirildi. Sovet davrida Buxoroda yodgorliklarni davlat muhofazasiga olish, restavratsiya ishlari, ilmiy pasportlashtirish amalga oshirildi. Buxoro tarixiy-arxitektura qo'riqxonasi tashkil etilishi shaharning turistik qiyofasini shakllantirdi. Sovet davrida turizm asosan ichki (SSSR doirasida), rejalashtirilgan, guruhli ekskursiyalar ko'rinishida bo'lgan. Maktab o'quvchilari, talabalar, ishchi va xizmatchilar Buxoroga tarix, me'morchilik, “Sharq shaharsozligi” namunalari bilan tanishish uchun olib kelingan. Sovet davrida xorijiy turistlar: maxsus ruxsat, qat'iy nazorat ostida Buxoroga tashrif buyurishgan. Shunga qaramay, Buxoro “Sharq ekzotikasi” sifatida SSSRning xalqaro turizm yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi.

#### **5. Mustaqillik yillarida Buxoro — xalqaro turizm markazi**

1991-yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tarixiy-merosni asrash va uni jahon miqyosida targ'ib qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Buxoro boy tarixiy-me'moriy merosga ega shahar sifatida xalqaro turizmni rivojlantirish markazlaridan biri etib belgilandi. Turizm sohasida maxsus davlat dasturlari, huquqiy-me'yoriy baza, xorijiy investitsiyalar yo'lga qo'yildi. 1997-yilda Buxoro tarixiy markazi UNESCO Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. Bu voqea shahar turizmi tarixida burilish yasadi. Natijada xalqaro turistlar oqimi oshdi, yodgorliklarni muhofaza qilish kuchaydi, restavratsiya ishlari jahon standartlariga moslashdi. Buxoro jahon sayyohlik xaritalarida mustahkam o'rin egalladi. Mustaqillik yillarida Buxoroda zamonaviy mehmonxonalar, milliy uslubdagi boutique-hotellar, transport va logistika tizimi, turistik axborot markazlari tashkil etildi. Xalqaro aeroportning yangilanishi va temiryo'l qatnovlarining yaxshilanishi shaharni global turizm tarmog'iga bog'ladi. Buxoro mustaqillik yillarida faqat tarixiy shahar emas, balki madaniy-ma'rifiy turizm, ziyorat turizmi, etnoturizm, gastronomik turizm, festival va tadbirlar turizmi markaziga aylandi. Bahouddin Naqshband majmuasi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Ark, Labi-Hovuz majmuasi xalqaro ziyoratchilarni o'ziga tortmoqda. Buxoroda “Ipak va ziravorlar” festivali, xalqaro ilmiy konferensiyalar, madaniy forumlar o'tkazilishi shahar turistik brendini mustahkamladi. Buxoro Sharqona muhitni saqlab qolgan holda, zamonaviy xizmatlar bilan uyg'unlashgan shahar sifatida targ'ib qilinmoqda.

Turizm sohasida Yevropa, Osiyo, Yaqin Sharq davlatlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. Xalqaro grantlar va loyihalar orqali yodgorliklarni restavratsiya qilish, kadrlar tayyorlash va xizmat sifati oshirildi.

Shu bilan birga, xalqaro turizm markazi sifatida Buxoro oldida tarixiy muhitni saqlash, ommaviy turizm bosimi, ekologik muvozanat kabi muammolar mavjud.

Kelajakda barqaror turizm, “aqli shahar” elementlari, raqamli turizm xizmatlari orqali Buxoro nufuzini yanada oshirish ko'zda tutilgan.

**Xulosa.** Buxoro shahri ming yillar davomida Markaziy Osiyoning eng muhim siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy markazlaridan biri sifatida shakllanib, turizm tarixida alohida o'rin egallaydi. Qadimgi davrlardayoq Sug'd sivilizatsiyasining yirik shahri bo'lgan Buxoro Buyuk Ipak yo'li tizimida Sharq va G'arbni bog'lovchi asosiy savdo va madaniy almashinuv markazlaridan biri vazifasini bajargan. O'rta asrlarda Buxoro ilm-fan, ta'lim va ziyorat markaziga aylanishi natijasida ilmiy va diniy safarlarning markaziga aylandi. Somoniylar, Qoraxoniylar va keyingi davrlarda barpo etilgan madrasalar, masjidlar, maqbaralar va xonaqohlar shaharning ilmiy-ma'naviy nufuzini yanada oshirdi. Bu davrda Buxoro nafaqat savdo shahri, balki bilim va e'tiqod sari intiluvchilar uchun muhim manzil bo'lib xizmat qildi.

Buxoro amirligi davrida turizm zamonaviy mazmunda bo'lmagan bo'lsa-da, ziyorat, ilmiy-ma'rifiy, savdo va diplomatik safarlar orqali shahar o'zining muqaddas va ilmiy markaz sifatidagi mavqeini saqlab qoldi. Karvonsaroylar, madrasalar va diniy majmualar sayohatchilar va ziyoratchilar uchun asosiy infratuzilma vazifasini bajardi.

Mustamlaka va Sovet davrida Buxoro turizmi keskin o'zgarishlarga uchradi. Diniy ziyoratlar cheklangan bo'lsa-da, shahar tarixiy-madaniy meros obyekti sifatida qayta talqin qilinib, ilmiy-ekskursion va madaniy-ma'rifiy turizm rivojlandi. Yodgorliklarning davlat muhofazasiga olinishi, muzeylashtirilishi va restavratsiya qilinishi kelgusida zamonaviy turizm rivoji uchun muhim poydevor yaratdi.

Mustaqillik yillarida esa Buxoro tarixiy merosni asrash va uni xalqaro miqyosda targ'ib etish asosida jahon darajasidagi turizm markaziga aylandi. UNESCO tomonidan tan olinishi, zamonaviy infratuzilmaning barpo etilishi, turizm turlarining kengayishi va xalqaro hamkorlikning rivojlanishi shahar turistik salohiyatini tubdan oshirdi.

Umuman olganda, Buxoro shahrida turizmning rivoji tarixiy uzviylik asosida kechib, har bir davr keyingisi uchun muhim tajriba va asos yaratgan. Bugungi kunda Buxoro o'zining boy tarixiy-merosi, ma'naviy qadriyatlarini va zamonaviy xizmatlari bilan Sharq va G'arbni bog'lovchi noyob xalqaro turizm markazi sifatida o'z mavqeini mustahkamlab bormoqda

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Narshaxiy, Abu Bakr. Tarixi Buxoro. — Toshkent: Fan, 1991. (Buxoroning qadimgi va ilk o'rta asrlardagi siyosiy, ijtimoiy va shahar hayoti haqida asosiy manba).
2. Bartold, V. V. Turkiston mongollar davrida. — Toshkent: Fan, 1963. (Buyuk Ipak yo'li, Movarounnahr shaharlari va Buxoroning mintaqaviy o'rni).
3. Asqarov.A.A. O'rta Osiyo qadimgi shahar madaniyati. — Toshkent: Fan, 1980. (Qadimgi davr va shahar sivilizatsiyasi, savdo yo'llari)
4. Bregel.Yu. An Historical Atlas of Central Asia. — Leiden: Brill, 2003. (Karvon yo'llari, savdo va madaniy almashinuv geografiyasi)
5. Xo'jayev.A. Buxoro me'moriy yodgorliklari. — Toshkent: O'zbekiston, 1997. (Ziyorat va madaniy turizm ob'ektlari tarixiy tavsifi).
6. Masson.M.E. Buxoro va uning tarixiy obidalari. — Toshkent: Fan, 1968. (Sovet davrida yodgorliklarning o'rganilishi va restavratsiyasi).
7. Vamberi, Armin. Travels in Central Asia. — London, 1864.
8. UNESCO. Historic Centre of Bukhara. World Heritage List. Paris: UNESCO, 1997.